

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

JAHON TARIXI KAFEDRASI

3-kurs “D” guruhi talabasi

QURBONOV OMATILLONING

**XIX ASR OXIRI - XX ASRNING BOSHLARIDA
AQSH MADANIY TARAQQIYOTI**

MAVZUSIDA YOZGAN

РЕФЕРАТИ

Ish rahbari: o'qituvchi G. A. Mamasoliyeva

Andijon – 2016 yil

REJA

KIRISH

I. AQSH TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

II. ADABIYOT VA ADABIY OQIMLAR.

III. TASVIRIY SAN'AT, ME'MORCHILIK VA MUSIQA

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda Amerika Qo'shma Shtatlari o'zining iqtisodiy-siyosiy hayoti, jahon miqyosida olib borayotgan siyosati va boshqa davlatlar bilan munosabatlari kabi xususiyatlari jihatidan dunyoning yirik davlatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Jahon siyosatida va dunyo hamjamiyatida uning roli va o'рни katta. Shu nuqtai nazardan AQShning tarixiga nazar tashlab, uning taraqqiyotidagi ayrim davrlarni o'rganish katta ahamiyatga ega. Aytish lozimki, AQSh nafaqat iqtisodiy va siyosiy jihatdan, ilmiy - madaniy va san'at ihtaraqqiyotida ham o'ziga xos tarixiy davrlarni boshdan kechirgan. XIX asr oxiri XX asrning boshlari bu sohada o'ziga xos davr hisoblanadi. Bu davrni o'rganish umuman AQSh tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur ishning ob'ektini o'rganilayotgan davrda madaniyat sohasi tashkil etadi. Madaniyat ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalari doirasida muhim o'rin tutadi. Insoniyat shakllana boshlabdiki. U bilan parallel ravishda madaniyat yuzaga kelgan. Tarixiy davrning hech qaysi bosqichini madaniyat taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mamlakatlar va milolatlar iqtisodiy-ijtimoiy hayoti yuksak taraqqiy etgan davrlarda madaniyat taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQSh da madaniyat, fan-texnika va san'at taraqqiyoti mazkur ishning ob'ektini tashkil etadi.

Mazkur malakaviy ishda aks etgan materiallardan talabalar va bu sohada qiziquvchi kitobxonlar foydalanishlari mumkin. Unda keltirilgan misollar va ayrim ma'lumotlar Amerika tarixini o'rganayotgan maktab, litsey va kollej o'qituvchilari va o'quvchilari uchun ham muhimdir.

Barcha Yevropa mamlakatlari va AQSh tarixida o'ziga xos davr bo'ldi. Bu davr sanoat inqilobining eng yuqori nuqtasiga chiqqan va barcha jihatlardan yakunlanish davri bo'ldi. Sanoat inqilobi bilan bog'liq holda amalga oshgan texnika taraqqiyoti barcha mamlakatlarning xo'jalik strukturasi butunlay o'zgartirib yubordi. Fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar va yutuqlar ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va rivojlantirishning usullari va yo'nalishlarini

tubdan o'zgartirib yubordi. Yangi progressiv usullarni tadbiq etilishi o'z navbatida sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida yanada siljishlarga olib keldi.

Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi AQSh da ham XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoat va qishloq xo'jaligi yuksak taraqqiy eta boshladi. Yuqorida qayd etilgan omillar bilan bir qatorda geografik imllar, ijtimoiy-siyosiy qulay vaziyat, ichki va tashqi siyosat doirasidagi ijobiy sharoitlar hammasi birgalikda AQSh iqtisodiyotini yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Qandaydir 40-50 yildan iborat bo'lgan qisqa davr ichida mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida boshqa davlatlarga nisbatan ancha ilgarilab ketdi va u agrar davlatdan rivojlangan industrial davlatga aylandi.

AQSh iqtisodiy hayotida bo'lib o'tayotgan kuchli o'zgarishlar uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va san'at sohasidagi hayotiga ham ta'sir etdi. Mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy jarayonlar va siyosiy shart-sharoitlar mamlakatni markazlashgan davlat tashkil topishi tomoniga yo'naltirdi. O'rganilayotgan davr AQShnigina emas, balki jahon tarixiy taraqqiyotining ham har tomonlama muhim bosqichi bo'ldi, deb aytish mumkin. Bu davr barcha Yevropa mamlakatlari, AQSh tarixida o'ziga xos davr sifatida e'tirof etiladi. Bu davr sanoat inqilobining eng yuqori nuqtasiga chiqqan va barcha jihatlari bo'yicha yakunlanish davri bo'ldi. Sanoat inqilobi bilan bog'liq holda amalga oshgan texnika taraqqiyoti barcha mamlakatlarning xo'jalik strukturasi butunlay o'zgartirib yubordi. Fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar va yutuqlar ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va rivojlantirishning usullari va yo'nalishlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Yangi progressiv usullarning tadbiq etilishi o'z navbatida sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida yanada siljishlarga olib keldi. Bunday jarayonlarning oqibatida fan va ta'lim oldiga jamiyat taraqqiyoti tomonidan qo'yilgan vazifalar natijasida bu sohalar taraqqiy etdi.

AQShda XIX asr oxiri-XX asr boshlarida sanoat va qishloq xo'jaligining yuksak taraqqiyoti ko'zga tashlanadi. Yuqorida qayd etilgan omillar bilan bir qatorda geografik omillar, ijtimoiy-siyosiy qulay vaziyat, ichki va tashqi siyosat

doirasidagi ijobiy sharoitlar hammasi birgalikda AQSh iqtisodiyotini yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Aytish mumkinki, o'rganilayotgan tarixiy davrda AQShdagi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot ham mamlakatda fan va texnika, ta'lim, san'at va umuman madaniyat sohasining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi. Fan sohasida nomi hali ko'pchilikka tanish bo'lmagan yangi olimlar, adabiyot va san'at sohasida ham buyuk san'atkorlar va adabiyotchilar, musiqachi va me'morlar tarbiyalanib yuzaga chiqdiki, ular tomonidan yaratilgan buyuk asarlar hozirgi kungacha ham AQSh tarixidagina emas, jahon madaniyati tarixida ham muhim ahamiyatga ega.

I. AQSH TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

AQSh iqtisodiy hayotida bo'lib o'tayotgan kuchli o'zgarishlar uning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ham ta'sir etmay qolmadi. Mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy-siyosiy jarayonlar fan va madaniyat sohasining ham taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatib, uning rivojlanish sur'atlarini yanada tezlashtirib yubordi. Madaniyat va fan, san'at taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlar yaratildi.

Ko'plab amerikalik tarixchilar AQSh prezidentlari orasida Linkolndan keyin Ruzveltchalik yorqin qiyofa bo'lmagani haqida aytishadi. Hokimiyat tepasida kuchli qobiliyat egasi, bilimli, ishchan va shu bilan birga kompromissga boruvchi va o'z maqsadlari yo'lida hech narsadan qaytmaydigan shaxs keldi.

Yangi prezident ichki siyosatning asosiy vazifasi sifatida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlab turish, turli inqilobiy portlashlarga yo'l qo'ymaslik va shu yo'l orqali AQShda mavjud tuzumni saqlab qolishning tarafdori edi. Bu nuqtai nazardan u konservator bo'lib, jamiyatda kuchli yangiliklarni hohlamas edi. Amalga oshirish mumkin bo'lgan jamiyatni modernizatsiyalash jarayonini yuqoridan davlat tomonidan boshqarilib turgan tarzda, ma'lum chegaragacha bo'lishi lozim, deb hisoblar edi. Shu bilan birga amalga oshirish kerak bo'lgan har qanday islohotlarga davlat bosh bo'lishi kerak, ishchilarga nisbatan esa qat'iy siyosat olib borish AQSh da ishlab chiqarishning rivojlanishi va kengayishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hayotini sifat jihatdan tubdan o'zgartirib yubordi. Ruzvelt iqtisodiy soha bilan bir qatorda madaniyat, fan va san'at sohasining taraqqiyotiga ham katta e'tibor berdi.

Madaniyat haqida so'z yuritishdan avval bu tushunchaning mazmuni va mohiyatiga to'xtalib o'tish lozim. "Madaniyat" tushunchasi hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan so'zlardan biriga aylangan. Bu so'zning tadqiqotchilar turli ma'nolarda qo'llamoqdalar. Ushbu tushuncha evolyutsiyasining tarixiga nazar solsak, bu tushuncha fransuz tarixchi olimi L.Fevrning aytishicha, birinchi marta 1766 yilda Fransiya ma'rifatparvarlari va Angliya ma'rifatparvarlari tomonidan 1773 yillarda qo'llangan. "Madaniyat" tushunchasi esa ilk marotaba 1774 yilda

ilmiy muomalaga kiritilgan. [2; 2.] “Madaniyat” “shaharlik”, “shaharlashish”, yana boshqa ma’nosi ishlov berish kabi ma’nolarini anglatadi. Dastlab bu tushuncha “silvaticus”, ya’ni “yovvoyi”, “qo‘pol” tushunchalariga qarshi qo‘yilgan. Yangi davrga kelib “sivilizatsiya” “madaniyat”ning sinonimi sifatida ham qo‘llanila boshlandi. Hozirgi davrda ham u madaniy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotning bosqichi sifatida tushuniladi.

Tarix falsafasi sohasida katta tadqiqotlarni amalga oshirgan tarixshunos faylasuf olim Ibn Xaldun esa madaniyatni kishilarning ijtimoiy hayoti sifatida tushungan va uni “umron”, deb atagan. Uning fikricha, umron kishilarning birgalikdagi ijtimoiy faoliyatini tashkil etadi va ikki turga bo‘linadi: “badaviy hayoti” va “shahar hayoti”. Birinchisi oddiy va darajasi past, boshqalar bilan kam bog‘langan, ikkinchisi esa turli-tuman bo‘lib, hayotning yuqori bosqichidir. Quyi fazadan yuqoriga o‘tish, ya’ni shaharga borib yashash uchun badaviylar ma’lum moddiy boylik yig‘adilar, ular shahardagi qulaylik, boylikka o‘rgana borib, shaharcha tabiiy hayotga kirib boradilar va to‘la u yerga ko‘chib keladilar. Madaniyat taraqqiyoti kishilarning moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mahalliy, o‘ziga xos mehnat faoliyati va moddiy boylik yig‘ishlari bilan bog‘liq. Bu narsa ularning turmush tarzini ham belgilaydi. Badaviylar hayotini a)dehqonchilik yoki hunarmandchilik xo‘jaligi; b) hayot va madaniyatning past ishlab chiqarish va iste’mol darajasi; v) ma’lum muhit va sharoitga bog‘lanib qolganlik; g)shaharga siyosiy va iqtisodiy qaramlik belgilaydi. Shahar hayotini esa a)hunarmandchilik yoki savdo-sotiq bilan shug‘ullanish; b)xo‘jalik, iste’mol va madaniyatning yuqori darajasi; v) xavfsizlikning yuqori darajasi; g) iqtisodiy va siyosiy jihatdan badaviylar hayotiga bog‘liq emaslik belgilaydi. Taraqqiyotni aholi sonining o‘sishi, shaharda ishchi kuchining to‘planishi va mehnatning, ya’ni ishlab chiqarishning rivojlanishi belgilaydi. Ikkala fazaning ham o‘ziga xosligi va shart-sharoitlari kishilarning psixologik xususiyatlari, ko‘nikmalari va axloqiy qoidalarini belgilaydi. {3; 340-341.}

Inson paydo bo'libdiki, u ma'lum madaniyat tizimida yashaydi. Madaniyat jamiyatning asosiy belgilaridan biridir. Bundan tashqari madaniyat millatning etnomavqeini tashkil etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Millatni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy belgilariadan biri, bu madaniyat hisoblanadi. Madaniyat moddiy va ma'naviy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Moddiy madaniyat bevosita insonning ongli faoliyati natijasida yaratiladigan madaniy boyliklar bo'lsa, ma'naviy madaniyatga axloq, din, san'at, fan, turli milliy va umuminsoniy qavdriyatlar va boshqalar kiradi.

Shunday qilib, har bir tarixiy davrning, mamlakat va millatning o'ziga xos madaniyati mavjud. Bu nuqtai nazardan AQSh madaniyatini o'rganish, uning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi madaniy taraqqiyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. AQSh madaniyati sohasida tadqiqotlar olib boradigan bir qator tarixchilarning fikricha, AQSh da 1861-1865 yillarda bo'lib o'tgan fuqarolar urushini AQSh madaniyati taraqqiyotida burilish nuqtasi bo'lgan, deb e'tirof etadilar. [4; 28.]

Fuqarolar urushidan keyingi davrda AQSh davlati madaniyat va fan taraqqiyoti sohasiga katta mablag'lar ajrataboshladi. Bu mablag'lar eng avvalo, ta'lim va tarbiya sohasi, fan, san'at va madaniyat sohasining ehtiyojlariga tegishli bo'ldi. Bu davrda mamlakatda hamma uchun majburiy boshlang'ich ta'lim tizimi joriy etildi. Bunday tizimning joriy etilishi albatta, endi rivojlanib kelayotgan AQSh iqtisodiy hayoti uchun ham katta ahamiyatga ega edi.

AQSh o'z davrining taraqqiy etgan davlatlaridan farq qilgan holda birinchi bo'lib ommaviy maktablarga ega bo'ldi. Ularda yangi pedagogik usullar joriy etildi. O'z davrining ilg'or texnologiyalari qo'llanila boshlandi. Bu davrda test savollarini yechish orqali bolalarning qobiliyatini aniqlashga harakat qildilar. Maktablarga test tizimini joriy etildi. Bu davr pedagoglari barcha bolalarning 15-20 % yuqori intellektual qobiliyatga ega qolganlari uchun yaxshi o'qish zarur emas, AQSh taraqqiyoti uchun ham ana shu 15-20% ning o'zi yetarli, deb hisoblaydigan turli nazariyalar paydo bo'ldi. Maktab tizimiga bolalarning qobiliyati, qiziqishlari va kelgusi aqliy rivojlanishini aniqlab berishga yordam

beradigan turli pedagogik usullar, sinovlar va yangiliklar joriy etila boshlandi. Bu sohada maktab o'quvchilarining ichida qobiliyatli bola sifatida ajratib olishning asosiy mezonlari bola xarakteridagi liderlik (etakchilik) xususiyatlari bo'ldi. Uning ana shunday yetakchilik qobiliyatiga qarab turib, uni aqliy jihatdan yuqori yoki past degan koeffitsient asosida aniqlashga harakat qilindi. Bunday yetakchilarni Amerika jamiyati barcha sohalarda: siyosat, iqtisodiy soha, xo'jalik sohasi, davlat xizmati va h.k.larda tayyorlab, yetishtirib berishni asosiy vazifa, deb hisoblar edi. "Qobiliyatli yoshlarni topish izlab topish va ularni tayyorlashda juda murakkab holat yuzaga keldi. Agar biz geniylarni qidirib topmasak va ularni tayyorlamasak, bizning jamiyatimiz yovvoyilikka yuz tutadi" .{1, 415}.

Ta'lim tizimida bunday pedagogik yondashuvning nazariy asoschilaridan biri Jordj Dyui hisoblanadi. Uning 1899 yilda nashr etilgan "Maktab va jamiyat" asarida ta'lim tizimiga pragmatizmni joriy etish, pragmatizmga asoslangan pedagogikani yaratish bo'yicha nazariyalar ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha, pragmatizm insonning har qanday hatti-harakatning asosida yotishi kerak, bo'lib, pragmatizm harakat falsafasidir. Dyuning fikricha, jamiyat tarixi insonlarning psixologik harakatlari asosida shakllanadi va bunday harakatlar, insonlarning intilishlari jamiyat taraqqiyotining shartini tashkil etadi. Insonlarning ongini ana shunday asosda shakllantirish va uni doimo o'zgartirib turish zarur, shunday yo'l bilan jamiyat yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Maktabning vazifasi ana shunday kishilarni tarbiyalashdan iborat. Bunday kishilardan tashkil topgan jamiyat esa turli ijtimoiy kataklizmalardan va kutilmagan inqiloblardan holi bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotida doim ijtimoiy islohotlar o'tkazilib turilishi lozim. Islohotlarning o'tkazilishi va ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyaga bog'liq. Demak, Dyuning fikricha, ijtimoiy taraqqiyot ko'p jihatdan maktab bilan bog'liq. Maktab jamiyatning iqtisodiy –ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri.

Ikkinchi tomondan esa, maktabning o'zi ham jamiyat taraqqiyotida amalga oshirilayotgan yutuqlar evaziga, yangiliklar natijasida o'zgarib borishi zarur. Bu

nuqtai nazardan maktab tizimiga va umuman ta'lim-tarbiya sohasiga domiy ravishda yangiliklarni, zamonaviy usullarni, ijodiy yondashuvni, yangi faoliyat turlarini kiritib borish lozim. Pedagogika jarayoni zamonning talablariga qarab doim taraqqiy etib va o'zgarib borishi zarur.

Dyuning ko'rsatishicha, maktab rivojlanishida mehnat darsi katta ahamiyatga ega. Maktabda mehnat darsining soatlari ko'paytirilishi lozim bolalarning ongida mehnat qilish va unga munosabatni shakllantirib borish zarur. Mehnatga o'rganish fan asosida borishi va fan bilan bog'liq holda taraqqiy etishi lozim.

Amerikadagi uchta universitet – Kornell, Gopkins, Garvard universitetlari yangi tizimga asoslangan oliy ta'limni isloh qilish tashabbusi bilan chiqdilar. Ular universitetda ikkita tizimni quyi va yuqor tizimdan iborat ta'lim joriy etdilar. Ular o'z atrofiga ta'lim tizimida islohotlar o'tkazishning tarafdorlari bo'lgan kishilarni yig'dilar. Yangi tizim universitetlarni mavjud maktablar va kollejlardan bog'liqlikda bo'lishini ham taqozo etar edi. Ular quyi tizimda o'qiydigan maktab va kollej o'quvchilarini turli stipendiyalar bilan ham ta'minlab turishni o'z zimmasiga oldilar.

Universitetlarda dastlab umumiy fanlarning o'qitilishi – adabiyot, tarix, arxitektura, matematika, tabiiy fanlarning asoslari va boshqalar, nazariy tayyorgarlik, keyinroq kafedralar bo'yicha bo'linish va asosan mutaxassislik fanlarini o'rganish bosh vazifa sifatida qaralar edi. Aytish lozimki, bu davrda ta'lim tizimi uchun yangi binolar ajratildi. Kollejlarning yangi binolari qad ko'tardi. Universitetlar uchun ko'p qavatli binolar qurildi. Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Amerikada maktab tizimi va oliy ta'lim tizimida bir qator islohotlar o'tkazildi va yangiliklar joriy etildi.

II. ADABIYOT VA ADABIY OQIMLAR.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida adabiyot va san'at taraqqiyoti jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Adabiyot va san'atda bu davrning ijtimoiy ziddiyatlari, jamiyat a'zolarining intilishlari, orzu umidlari, jamiyat oldida turgan turli ijtimoiy ehtiyojlar va maqsadlar aks etdi. Aytish mumkinki, bu davrda Amerikada bozor iqtisodiga asoslangan munosabatlar shakllanishi jarayoni davom etdi. Shunga ko'ra bu jarayonni adabiyotda va san'atda ham aks etganini ko'rish mumkin. Bu sohada asosiy mavzu bo'lib, o'sha davrning bosh qahramoni tadbirkor qiyofasi shakllandi. Adabiyot sohasida yaratilgan barcha asarlarda uddaburon tadbirkor, barcha sohalarda foyda olish uchun harakat qiladigan, foyda olish ketidan quvib charchamaydigan va doim nima bilandir band bo'lgan kishi-tadbirkor qiyofasi asosiy o'rin egallay boshladi. Xullas, ishbilarmon kishi qiyofasi barcha adabiyot asarlarda va san'at asarlarida bosh mavzuga aylandi.

Adabiyot sohasida yuqorida qayd etilgan tadbirkor qiyofasini yaratish borasida yozuvchi Djordj Xoras Lorimer (1867-1937) edi. U ko'pchilikka tanish bo'lgan "Adabiyot jurnali" ommaviy adabiy jurnalning bosh redaktori edi. Bu jurnalning tiraji qisqa davr ichida 1800 donadan 3 mln.ga ko'tarildi. Lorimer ko'pchilikka tanish bo'lgan asar "O'zini o'zi yaratgan savdogarning o'g'liga xati" nomli hikoyasi bilan ommaga yaxshi tanildi. Hikoyada u savdgar qanday qilib kapital yig'ish mumkinligi haqida ochiq bayon etgan. Bayon etish davomida muallif qanday qilib bolani yoshligidan tejamkor bo'lishga, harakat qilishga, pul topishga, qanday qilib topgan pullarini tejab borib to'plashga va undan qaysi yo'llar bilan foyda olish va uning asosida kapital yig'ish hamda bularning evaziga qanday qilib ulkan boylikka erishish sirlarini yoritishga harakat qilgan. Bu asar o'z davrida eng ko'p o'qiladigan asarlardan biriga aylandi va yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirishda katta rol o'ynadi.

XIX asrning 70-80 yillari ko'p jihatdan bir necha yozuvchilarni birlashtirgan turli adabiy oqimlarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu

yoʻnalishlarni progressiv adabiy oqim, konservativ va traditsionalizm asosida birlashgan adabiy oqim sifatida eʼtirof etish mumkin. Ayrimlari konservatizm gʻoyalarga asoslansalar, boshqalari traditsionalizmni bosh gʻoya sifatida yoqlab chiqdilar, yana birlari zamon ruhiga mos ravishda individualizm, yaʼni yakka holda rivojlanish, oʻzini oʻzi yaratish, oʻzi uchun harakat qilish kabi gʻoyalarni ilgari surdilar, boshqa oqimlar masalani yoritishda asosan dogmatizm usuliga suyanishga intilgan edilar.

Shu oʻrinda progressiv, konservativ, traditsionalizm kabi tushunchalarning mohiyatini yritib oʻtish lozim, deb hisoblaymiz. Progressiv – lotincha “oldinga harakat”, “muvaffaqiyat” maʼnosini bildirib, rivojlanishning quyiroq bosqichidan yuqorisiga tomon takomillashib boruvchi jarayonni bildiradi. Konservativ – lotincha “saqlash”, “himoyalash” demakdir. Birinchi marta bu tushuncha fransuz yozuvchisi Shatobrian tomonidan qoʻllanilgan. Ijtimoiy sohada konservatizm koʻproq oʻzgarmaslikka moyil boʻlgan barqarorlikni targʻib qiladi. Konservatizm dogmatizmga yaqin.

Dogmatizm – fikrlashning qotib qolgan shakli boʻlib, u hodisa va muammolarning tahlilini oʻzgarishlarni va reallikni hisobga olmagan holda amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. Dogmatizm masalaga bir tomonlama yondashgan holda uning ayrim tomonlarini mutlaqlashtiradi va nisbiylikka eʼtibor bermaydi. Bu tushuncha birinchi marta qadimgi yunon skeptiklari Pirron va Zenon tomonidan kiritilgan. Dogmatik xususiyatlarga ega boʻlgan traditsionalizm milliy taraqqiyotni va milliy oʻzlikni anglash masalalarini faqat oʻz milliy madaniyati va uni tan olish bilan bogʻlaydi. Dogmatik traditsionalizmning mohiyati fundamentalizmga yaqinroq boʻlib, bunday traditsionalizm millat tarixidan mustahkam oʻrin egallagan qadriyatlarnigina tan oladi va zamonaviy, progressiv yangiliklarga yoʻl bermaydi. Traditsionalizmning bunday shakli millat va mamlakatning taraqqiyotiga toʻsiq boʻlib qolishi mumkin.

Sogʻlom konservatizm progressiv traditsionalizm bilan bogʻliq boʻlib, tolerantlik xususiyatiga ega. Bunday ochiq traditsionalizm boshqa millatlar va

xalqlarning ham taraqqiyotiga xizmat qiluvchi madaniyatni, yangi zamonaviy va demokratik qadriyatlarni tan olgan holda o'z taraqqiyotida ulardan ham foydalanishga harakat qiladi, ularga hurmat bilan qaraydi. Progressiv traditsionalizm millat va mamlakatning boshqa millatlar bilan o'zaro teng huquqli va gumanizmga asoslangan dialog o'rnatishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Amerika adabiyotida katta rol o'ynagan yana bir yozuvchi Uilyam Din Xoules hisoblanadi. U romanist, adabiy tanqidchi, ocherk yozuvchi va katta ta'sirga ega bo'lgan kuchli arbob hisoblanadi. U Yevropa madaniyatini yaxshi bilgan, yoshligida Venetsiyada konsul lavozimida ishlagan. Uning "Venetsiyadagi hayot", "Ularning to'y syoxati", "Tasodifiy uchrashuv" kabi asarlarida insoniy va axloqiy qadriyatlar, insonning ichki dunyosi, tuyg'ulari, oilaviy munosabatlar kabilar ifoda etiladi. Uning "Zamonaviy tarix", "Saylas Lafam kar'erasi" asarlarida o'z zamonining iqtisodiy moddiy munosabatlari, adolatli tadbirkorlik yuritish, avlodlarning haqqoniyligi, adolatli tamoyillar asosida ish yuritishi zarurligi kabi g'oyalar ilgari suriladi. Bular bilan bir qatorda ochko'zlik, qizg'anchilik, tadbirkorlik borasidagi adolatsizlik, aldov yo'li bilan yuqori lavozimlarga erishish, insoniy qadriyatlarga mos tushmagan yo'llar bilan boylik orttirish, boshqalarni aldash orqali mavqega erishish kabi xislatlar qoralanadi.

Xouells uchun inson va jamiyat hayotining bosh tamoyili iqtisodiy va moddiy tenglik edi. Siyosiy sohada burjuaziya demokratiyasini yetarli emas, deb hisoblar edi. Uning bir qavtor romanlar "Enni Kilbern", "Tasodiflar dunyosida", "Boylik ortidan quvishning oqibatlari" kabi asarlari asosan iqtisodiy saqzularga bag'ishlangan bo'lib, ularda boylik va qashshoqlik o'rtasidagi qarama-qarshilik, boylikka erishgan kishilarning bu yo'lda amalga oshirgan hatti – harakatlari, adolatli va vijdonan hayot kechrishning afzalliklari, moddiy hayotda adolatsizlikning oqibatlari kabi muammolar bosh masala sifatida ko'tarilgan.

O'rganilayotgan davrda katta muvaffaqiyatlarga erishgan Amerikaning buyuk yozuvchilaridan yana biri Mark Tvendir. Mark Tven o'zi yozuvchi bo'lib

shakllangunga qadar turli sohalarda faoliyat yuritgan bo'lib, hayotni va uning qiyinchilarini yaxshi biladigan kishi edi. Uning ijodiga yuqorida sanabyu o'tilgan yozuvchilarning ham ta'sir katta bo'ldi. Uning "Tennesidagi jurnalistika", "Meni qanday qilib gubernatorlikka saylagan edilar", "Chet eldagi sodda kishilar" kabi asarlari ko'pchilikka ma'lum.

Mark Tvenning shoh asarlaridan biri "Tom Soyerning sarguzashtlari", deb nomlangan. Keyinroq yaratgan yana bir buyuk asari "Geklberri Finning sarguzashtlari" nomi bilan mashxur. Ushbu asarlarda Gek va qora tanli Djimning obrazlari yaratilgan. Ularning sarguzashtlari boylik bilan o'ralgan Amerika hayoti soyasida ko'rsatilgan. Qahramonlarning real, qiyinchiliklar va muammolarga to'la hayoti, boylar hayoti, ularning turlicha mohiyatga ega bo'lgan muammolari kabi jihatlar asarlarda aks etgan. Asar haqida buyuk Amerika yozuvchi Ernst Xeminguey quyidagilarni yozgan edi: "amerikaning bugungi adabiyoti Mark Tvenning "Gelbern Finn" deb nomlangan bittagina kitobida aks etgan". [8; 67.] Mark Tvenning taniqli asarlaridan yana "Shahzoda va qashshoq", "Janna d , Arkning haqida shaxsiy xotiralar" ni keltirish mumkin. Bu asarlarida Mark Tven uzoq o'tmishdagi tarixiy voqealar bilan uning davridagi voqealar o'rtasidagi o'xshashliklarni ifoda etadi. Muallifning yana bir qator asarlarida endi yangicharoq mavzu o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolari yoritilgan. Bu asarlarga "General Fanstonning himoyasiga", "Qorong'uldikda ketayotgan kishi", "Harbiy duo", "qirol Leopoldning monologi" kabilarni misol qilish mumkin. Mazkur asarlarda Mark Tven rasizm, mustamlaka siyosati, kambag'allarni ezish, ijtimoiy adolatsizlik kabi ijtimoiy masalalarni ko'tarib chiqadi. Shuning uchun ham o'z davrida ushbu asarlar keng xalq ommasi tomonidan sevib o'qilgan va XX asrning buyuk madaniy durdonalari qatoridan o'rin olgan.

Jek London romanlar yaratish bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan maqolalar ham yozgan. Ularga "Inqilob", "Sinflar kurashi" va boshqa maqolalarni misol sifatida keltirish mumkin. Bu maqolalarda

muallifning mavjud tuzumga va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga nisbatan tanqidiy yondashuvi aks etgan.

Hayotining soʻnggi davrlarida London bir qator lirik romanlar yaratdi. Uning “Katta uyning kichik bekasi”, “Oy nuriga choʻmilgan vodiy” kabi asarlari ana shular jumlasidandir. Bu asarlar lirik drammatizm ruhida yozilgan boʻlib, ularda muxabbat, insonlar munosabati, ularning jamiyat bilan munosabatlari yoritilgan.

Koʻrib oʻtilayotgan davr Amerika adabiyotida yana bir oqim shakllandi. Bu oqimning yuzaga kelishi 1900 yillarga toʻgʻri kelib, u tarixga “makreykerlar harakati” nomi bilan kirgan. Soʻzma-soʻz tarjima qilinsa bu nomni “kirdan halos etuvchilar” sifatida noslash mumkin. Bu oqimning tarkibiga A.Tarbell, S.Beyker, U.Xard, E.Rassel kabi yozuvchilar va adabiyotchilar kirganlar. Ular adabiyotda naturalizmga yaʼni bor narsani tabiiy, ochiq-oydin koʻrsatishga intilganlar. Ular jurnalistikada romanchilik va lirizm usullarini qoʻllashga harakat qilganlar. Ularning asarlarida mavjud ijtimoiy hayot bilan ideaollar oʻrtasidagi ziddiyatlar, shov-shuvga sabab boʻladigan hodisalar keng aks etgan. Bu adabiy oqim madaniyat sohasida ijtimoiy tanqidiy yoʻnalishning shakllanishiga katta hissa qoʻshdi.

Demak, XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Amerika madaniyatida va adabiyot sohasida bir-biriga oʻxshamaydigan bir necha adabiy oqimlar shakllandi. Ularning natijasida yuqorida nomlari keltirib oʻtilgan bir necha yozuvchilar shakllandi. Ularning yaratgan buyuk asarlari bugungi kungacha adabiyot hazinasidan katta oʻrin egallab kelmoqda.

III.TASVIRIY SAN'AT, ME'MORCHILIK VA MUSIQA

XIX asrning 70-yillari AQSh madaniyati va shu jumladan tasviriy san'at sohasida yangi davrning boshlanishi sifatida ko'pgina tarixchilar va madaniyat sohasining tadqiqotchilari tosonidan e'tirof etiladi. Amerika taniqli tarixchilaridan biri L.PArrington "... texnika sohasidagi urushlar va ziddiyatlar tufayli Amerika turli urushlardan xalos bo'ldi. Sabrsiz yangi davrda abstrakt nazariyalar, ulug'vor adabiy ideallar, davlat to'g'risidagi demokratik ta'limotlar bilan hech kimning ishi bo'lmadi –boylik va hokimiyat uchun shafqatsiz kurash avjiga chiqqanda bularning hammasi bir tomonga surib qo'yildi. [9; 540]. O'rganilayotgan davrda o'ziga xos ravishda tasviriy san'at yo'nalishi ham taraqqiy etdi. 1876 ymla Filadelfiyada "Yuz yillik ko'rgazma" ochildi. Ko'rgazma 100 dan ziyod pavilonlarda joylashgan edi. Ularning 15 tasida AMerika kolleksionerlarining yiqqan tasviriy san'at asarlarida Amerika san'ati ifoda etgan edi. Pavilonlarning bir qismida o'z davrining yirik rassomlari Kopli, Uest, Styuart, Xomer va boshqalarning asarlari joylashgan edi.

Ammo ko'rgazmani ko'rmoqchi bo'lganlarning diqqatini tasviriy san'at asarlari emas, maxsus pavilon-zalga joylashtirilgan "Mashina zali" nomli ko'rgazma tortdi. Bu zalda lokomotivlar, turli mashinalar, stanoklar va boshqa texnika ko'rgazmaga qo'yilgan edi. Bunday texnika sohasidagi yangiliklar ko'pchilikning e'tiborini o'ziga qaratdi. Bunday qiziqish tasodifiy emas edi. Chunki aynan mana shu yillarda AQSh da aniq fanlarga qiziqish kuchaydi.

Mamlakatning barcha intellektual potentsiali mashinalar, turli texnika asboblari va qurilmalari yaratishga qaratilgan edi. Bu sohada ham pragmatistik yondashuv asosiy o'ringa chiqib, u turmush tarzi va madaniyatining asosiy usuliga aylanib borayotgan edi. Amerika ziyolildarining fikri –hayoli san'at sohasisga emas, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, tadbirkorlik, foyda olish, yangi hududlarni egallab olish va o'zlashtirish, mustamlaka hududlarini kengaytirish kabi sohalarga qaratilgan edi.

Yuqorida aytilgan jarayonlarga qaramasdan Amerika ijtimoiy hayotining asosiy mazmuni iqtisodiy hayot bilan bog'liq bo'lsada, sang'at ham o'z yo'liga rivojlana boshladi. Bu davrda ham Amerika san'ati dunyoga buyuk rassomlarni bera oldi. 70-yillardan boshlab tasviriy san'at sohasida bir qator muhim jarayonlar yuz berdiki, bu holat keyinchalik san'at tarixiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda yana amerikalik tasviriy san'at sohiblari Yevropa madangiyatiga qiziqishlari oshgan davr bo'ldi. Bu davrda amerikalik rassomlar uchun Parij, Myunxen, London shaharlari haqiqiy Makkaga aylandi. Bularning ta'sirida Amerikada bir qator buyuk rassomlar shakllandi. Ularning ijodi Amerika san'ati tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ularga Unislou Xomer, Tomas Eykins, Albert Pinkema Rayderlarni misol qilish mumkin.

Unislou Xomer (1836-1910) Amerika san'ati tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan va ulkan rol o'ynagan mumtoz rassom hisoblanadi. U Boston shahrida tug'ilib o'sgan bo'lib, Amerika tarixini juda yaxshi bilar va o'z Vatanini juda sevar edi. Dastlab u fuqarolar urushi frontidan rasmlar chizgan. Bu rasmlar ko'pchilik o'rtasida katta qiziqish hosil qilgan edi. Keyinchalik u Nyu-Yorkka kelib yashay boshladi va tasviriy san'at bilan jiddiy shug'ullanishga ahd qildi. U Nyu-Yorkdagi kechki Rassomchilik Akademiyasida o'qiy boshlaydi. Bu bilan bir qatorda o'sha davrda taniqli bo'lgan bir nechta rassomlarning ham darsini oladi, ularga shogird tushadi. 1966 yilda "Frontdan kelgan asirlar" kartinasini yaratadi. Bu asar orqali taniqli rassomga aylandi. Bu asar uni mashhur qildi. Chunki rassom o'zi bevosita frontda bo'lgan, janglarda ishtirok etgan va u janglar ta'sirida bo'lgan edi. Shuning uchun ham u yaratgan mazkur asar juda haqqoniy, real va tabiiy chiqqan. Xomer realist rassom sifatida tanildi. U lirikadan uzoqroq bo'lib, ko'proq frontdagi voqealar, qishloq hayotini, qishloq turmush tarzini bo'yamasdan tabiiy ko'rsatishga intilgan.

Xomer 1867 yilda Parij jahon ko'rgazmasi bilan yaqindan tanishdi. Uning asarlari orasida yorqinlik, havo turli bo'yoqlarda ifoda eta boshladi. Asarlarida yana bolalar, oddiy hayot, maktab hayoti kabilar ko'proq ifodalanar edi. 1881

yilda Xomer Angliya ketadi va Angliya tasviriy san'ati bilan yaqindan tanishadi. Endi uning asarlarida tabiat, insonning tabiat bilan birgaligi kabi mavzular keng o'rin ola boshladi. Endi uning ko'tarib chiqqan mavzulari va muammolari romantik realizmga asoslangan edi. Vaqt o'tishi bilan rassom Xomer ranglarni, makon va tabiatning boshqa elementlari kompozitsiyasini o'tkirroq va chuqurroq his eta boshladi. Uning "tulkini ovlash", "Dengizdagi bo'rondan keyingi tong", "Yoz tuni", "Nord ost" kabi asarlari Amerika tasviriy san'ati sohasida ulkan asarlar hisoblanadi. Uning asarlarida dengiz, okean, bo'ron va ularning xavfliligi kabi holatlar aks etgan. Xomerning tanqidchilari uni adolatli tarzda "Dengiz shoiri", deb ataydilar. Uning asarlarida dengiz, inson va hayotning dramatik jihatlari lirik va real holatda aks ifoda etgan.

Amerikaning yirik rassomlari qatorida Tomas Eykinsni (1844-1916) aytib o'tish zarur. Uning ahamiyati faqatgina ijodi bilan emas, rassom tomonidan qo'yilgan muammolarning o'tkirligi va dolzarbligi bilan ham belgilanadi. Uning asarlarida emotsional va ilmiy nuqtai nazardan aniq holda u yashagan davrning ziyoli kishisi portreti yozilgan. Ziyoli kishining ma'naviy qiyofasida rassom u davrning ziddiyatlari, xususiyatlari va muammolarini aks ettirgan. Eykins u bilan birga yashagan zamondoshlari ichida eng bilimlisi, deb aytish mumkin.

Eykins u har tomonlama bilim olgan, ko'p sohalarga qiziquvchi, ayniqsa, ilmiy, texnik muammolarga e'tibor beruvchi rassomdir. Uning ko'pchilikka tanish bo'lgan "Uolt Uitmen portreti", "Kardinal Martinelli portreti", "Mutafakkir", "Violonchelist", "Aktrisa" va boshqa asarlarida asosan ziyoli kishilar qiyofasi shakllangan bo'lib, ularda ratsionalizm va emotsiyalarning sintezi aks etgan. Demak, rassomning asarlarida ob'ektiv olamning hissiy va aqliy yo'l bilan idrok etish bilan bog'liq bo'lgan muammolar ifoda etgan.

XIX asrning 70-yillari me'morchilik sohasining gullab-yashnashi davrining boshlanishi bo'ldi. Ilm va fanning taraqqiy etishi, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, texnikaning rivojlanishi kabi hodisalar ta'sirida me'morchilik ham yaxshi taraqqiy eta boshladi.

Bu davrning taniqli me'morlari sifatida Ogastes Sent-Godens, Daniel Chester French, Olin Levi Varnerni keltirish mumkin. Ular Parijda tasviriy san'at akademiyasida o'qidilar va AQShga fuqarolar urushidan keyin qaytib keldilar. Bu davrda AQShda barcha sohalarda ko'tarilish namoyon bo'layotgan edi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va texnika sohalari, ta'lim tizimi va boshqalarda turli islohotlar o'tkazilishi boshlangan edi.

Bu davrni AQSh tarixida shaharlashishning yangi bosqichi yoki sivilizatsiyaning o'ziga xos bosqichi sifatida e'tirof etish mumkin. Bunday jarayon me'morchilik sohasida aks etib, unda provinsiya naturlizmi o'rnini endi boshqa metodlar egallay boshladi. Bu sohaning vakillari o'zlarini turli usullar orqali, yangi g'oyalar, usullar, tendensiyalar orqali sinab ko'rishga intildilar. Me'morchilik sohasida milliy xususiyatlarni aks ettirishga va mazkur davrning tobora jadallashib borayotgan tarixiy o'zgarishlarini ifoda etishga harakat qildilar. Ular yangi-yangi usullar va yo'nalishlar doirasida ijod qilishga harakat qildilar. Aytish mumkinki, bu davrda me'morchilik sohasida "yangi harakat" boshlandi.

Sent Goddensning dastlabki yirik asarlaridan biri Nyu-York shahrida 1874 yilda yaratilgan "Sukunat" asari bo'ldi. Muallif keyinroq Parijda "Xristosga ta'zim" asarini yaratdi. Mazkur asar Nyu-Yorkdagi Muqaddas troitsa (uchlik) cherkovi uchun maxsus yaratilgan edi. Yana bir asari fuqarolar urushining qahramoni admiral Farragutuga bag'ishlangan bronzadan yasalgan ulkan yodgorlik bo'ldi. Ushbu yodgorlik Nyu Yorkdagi Medison-parkiga qo'yilgan bo'lib, u Goddensga katta obro' olib keldi. Bu asaridan keyin muallif yirik me'mor sifatida tan olindi. Ushbu asarida Goddens Italiya me'morchiligiga xos bo'lgan yuqori stilga asoslangan an'analarni amerikacha jiddiy va keskin realizm bilan birlashtira oldi.

Amerika tarixining mazkur davrida arxitektura sohasida ham ulkan yutuqlarga erishildi. Yirik arxitektura asarlari yaratildi. Bu sohaning taraqqiyoti Amerika me'morchiligidan farq qilgan holda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Arxitekturada ikki yirik yo'nalish namoyon bo'ldi. XIX asrsning 70-yillaridan

boshlab unda bu ikki yo‘nalishning – eklektizm, eklektika va ikkinchi tomondan funksionalizm o‘rtasida kurash bordi. Eklektizm san‘at sohasidagi o‘ziga xos oqim bo‘lib unda turli usullarning elementlari aks etadi. Funksionalizm esa arxitektura sohasini texnika va injenerlik sohasiga xos bo‘lgan elementlar bilan qo‘shib olib borishga intiladi. Funksionalizm da bu davrdagi AQSh tarixining texnika taraqqiyoti, fan taraqqiyoti natijasida san‘at sohasiga kirib kelgan ayrim yangi usullar aks etadi.

Bu davrda Amerikada qurilayotgan muzeylar, teatrlar, maktablar va bibliotekalarning binolari an‘anaviy usullarda barpo etilgan bo‘lsa, hukumat binolari, kommersiya bilan bog‘liq binolar, mehmonxona va boshqalar zamonaviy usullarda qurildi. Bu davrda ijod qilgan arxitektorlardan yana Richard Morris Xantni, Xenray Xobson Richardsonlarni misol qilish mumkin.

O‘rganilayotgan davr Amerika arxitekturasiga ko‘plab yosh arxitektorlarning kirib kelishi, ularning zamonning jadal sur‘atlar bilan o‘zgarib borishi natijasida madaniyat va boshqa sohalar oldiga qo‘yayotgan talablariga javob bera olishi AMerika arxitekturasining jahon madaniyati tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab berdi. Bu davr arxitektorlardan shaharlarni qayta qurish, yangi shaharlar barpo etish, yirik binolar, osmono‘par binolar barpo etish, turli ofislar uchun xizmat qiladigan komplekslar yaratishni talab etar edi. Amerikaning yirik shaharlari – Nyu-York, Chikago, Filadelfiyada qurilgan ko‘plab ulkan va baland binolar ana shular jumlasidandir. Amerika arxitekturasiga kirib kelgan bir qator yoshlar bu davrning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy talablarini anglab yetgan holda davrning ijtimoiy vazifalariga javob beradigan ishlarni amalga oshirdilar. Kishilar hayotiga tobora chuqurroq kirib kelayotgan qulaylik, barcha sohalar da tizimlilik va komplekslarga intilish bu davr arxitekturasida o‘z aksini topdi.

Arxitektura va qurilishlar haqida so‘z yuritganda “dunyoning sakkizinchi mo‘jizasi” deb nom olgan Panama kanali qurilishi haqida albatta, to‘xtalib o‘tish zarur. Panama kanalining qurilishi insoniyat tarixida va qurilish injenerligi

sohasida amalga oshirilgan eng murakkab va ulkan loyihalardan biri bo'ldi. Panama kanali dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk qurilishlardan biri bo'lgani holda, u kemasozlik taraqqiyotiga va umuman G'arbiy yarim sharlik hududida joylashgan davlatlarninggina emas, balki boshqa mamlakatlarning ham iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi o'zining iqtisodiy-siyosiy hayotida u yoki bu holda kanalning faoliyat ko'rsatishidan manfaatdor bo'ldilar. Aytish mumkinki, Panama kanalining qurilishi global makonda geosiyosiy ahamiyatga ega bo'ldi va hozirgi kunda ham kanal global iqtisodiy masalalarni hal etishda ulkan rol o'ynab kelmoqda.

1871 yildan boshlab qora tanli xalqlar uchun turli maktablar, kollejlari va universitetlar ochila boshlandi. Ularning qoshida esa turli xorlar ham tashkil topa boshladi. Shunday xorlardan biri Nashvill shahri universiteti qoshida tashkil topgan kompozitor Djon Uayt boshchiligidagi xor bo'ldi. Mazkur xorning aytgan qo'shiqlari omma orasida keng yoyildi. Xorning dovrug'i butun mamlakatga taraldi. Xor mamlakat bo'ylab gostrollar va chiqishlar uyushtirdi. Keyinchalik ushbu xorda qo'shiq aytgan qo'shiqchilar orasidan taniqli kompozitorlar va musiqachilar yetishib chiqdilar. Jumladan bastakor va qo'shiqchi Roland Xeyns ana shular jumlasidandir. U musiqa doktori degan sharaflilik nom oldi. Bu davrda bir qator yirik kompozitorlar ham yetishib chiqdilar.

XIX asrning oxirlariga kelib negrlar musiqasi va qo'shiqlariga bo'lgan qiziqish ortib bordi. Ularning xalq folklorini o'rganish uchun turli guruhlar va ekspeditsiyalar tashkil etildi. Ularning tadqiqotlari asosida negrlar folklorining to'plamlari nashr etildi. Afrika-Amerika folklori degan yo'nalish paydo bo'ldi. Aynan ana shu xalq folklori negizida jaz, blyuz kabi musiqa janrlari yuzaga keldi.

Bu davrning taniqli bastakorlari va qo'shiqchilaridan Djon Senki, Robert Louri kabi kompozitorlarni misol qilish mumkin. XIX-XX asrlar arafasida yangi janr lirik blyuz qo'shiqlari janri paydo bo'ldi. Blyuz yo'nalishining turli

maktablari paydo bo'ldi: qishloq blyuzi, shahar blyuzi va mumtoz blyuzlar. Keyinroq blyuz asosida djaz musiqasi paydo bo'ldi.

Bunday janrlar bilan bir qatorda estrada raqs janri ham paydo bo'ldi va u keng taraqqiy eta boshladi. XIX asrning 90-yillariga kelib yangi raqs janrlaridan regtaym keng tarqala bordi va ayniqsa yoshlar orasida urf bo'ldi. Regtaym fortepyanoda chalinadigan musiqaga shaharga xos tarzda tushiladigan raqs. Bunday raqslar dasstlab qora xalqlar tomonidan ijro etilib turli restoranlar va klublarda sahnaga qo'yiladigan bo'ldi. Bu janrning taniqli vakili Skot Djoplin edi.

Bu davrda AQShda mahalliy bastakorlar maktablari tashkil etildi. Shunday bastakorlar maktablarining birinchisi Boston shahrida ochildi. Bu musiqa maktabini "yangicha ingliz maktabi" deb atasha boshladi. Chunki unda Angliya an'analari va mahalliy Amerika an'analari qo'shib ketgan edi. Bu maktabning vakillari sifatida Djon Peyn, D.Chedvik, G.Parker, S.Pratt va boshqalarni aytib o'tish mumkin. Ular bir vaqtning o'zida Garvard universiteti kompozitsiya kafedrasining ham a'zolari edilar. Ular o'z ijodlarida nemis musiqasi, ingliz musiqasi va shu bilan birga mahalliy milliy musiqaning ohanglarini birlashtirishga harakat qilar edi.

Aytish mumkinki, o'rganilayotgan davrda AQSh musiqasi umumiy ko'tarinkilik va rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu davr musiqasida fuqarolar urushidan keyingi davrning o'ziga xosliklari, barcha sohalaridagi yaratish jarayoni, yangilanish bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar aks etdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Nyu York, Chikago, Boston shaharlarida simfonik orkestralar tashkil topdi. Ularga o'z davrining taniqli bastakorlari yetakchilik qildilar. T.Tomas, V.Gerike, V.Damros, A.Nikish kabi bastakorlar va dirijerlar bu sohada katta faoliyat ko'rsatdilar. Bu orkestrlarning konsertlarida Bax, Gendel, Betxoven, Mendelson kabi buyuk bastakorlarning asarlari ijro etildi.

1883 yilda Nyu-Yorkda yirik opera teatri "Metropolitan-opera" ochildi. Bu davrda yana musiqa sohasida ta'lim olishning birinchi markazlari osildi. Musiqa

oliy o'quv yurtlar tashkil topdi. Bir qator xususiy konservatori va musiqa maktablar ochildi. Ular orasida Garvard, Kolumbiya, Filadelfiyada ochilgan o'quv markazlar va oliy o'quv yurtlarini aytish mumkin. Ularning qoshida esa simfonik orkestrlar va teatrlar tashkil topdi.

XX asrning boshlarida siyosiy qo'shiqlar keng tarqala boshladi. Ularning tarqalishiga barcha mamlakatlarda avj olgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar va milliy ozodlik harakatlari sabab bo'ldi. Ishchilarning "Jahon industrial ishchilari" nomli tashkilotlari tuzilib, ularning qoshida ham turli ishchilar orkestrlari tashkil topdi. Bu orkestrlar asosan siyosiy qo'shiqlarni ijro etar edilar. Bu qo'shiqlar ishchilar orasidan yetishib chiqqan shoirlar va yozuvchilar, bastakorlar tomonidan yaratilar edi. Bu janr bilan bir qatorda milliy folklor janri ham taraqqiy etib bordi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'rganilayotgan davr tarixida bastakorlik, musiqa sohasida katta muvaffvqiyatlarga erishildi. Turli maktablar, musiqa o'quv yurtlari tashkil topdi. Ularning faoliyati musiqa yaratish bilangina cheklanib qolmadi. Bu maktablarning o'qituvchilari musiqiy ta'lim berish va estetika sohasida pedagogik faoliyat ham olib bordilar.

XULOSA

XIX asr oxiri XX asr boshlarida AQSh o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. U ichki va tashqi siyosatda avvalgidek tendensiyalarni saqlab qolgan holda dunyo miqyosida yanada muhimroq pozitsiyani egallashga intildi. Bu davrda AQSh dunyoning yirik davlatlaridan biri bo'lib, aholisining soni bo'yicha dunyoda Xitoy, Hindiston va Rossiyadan keyin 4-chi o'rinda turar edi. 1900 yilda kirib kelayotgan immigrantlar bilan birga hisoblaganda uning aholisi 76 mln.ni tashkil etar edi.

Tadqiq etilayotgan davrda AQSh dunyoning yirik davlati bo'lib, uning iqtisodiy potentsiali tobora ortib borayotgan edi. Uning iqtisodiy ishlab chiqarish kuchlari tinmay o'sib borayotgan va agrar mamlakatdan industrial davlatga aylanib borayotgan edi. Yirik ishbilarmonlar guruhlar va yirik kapital egalari hukumatdan tashqi siyosatda faol bo'lishni, agressivroq siyosat olib borish va yanada yangi hududlarga ega bo'lishni talab qilayotgan edi.

AQSh tarixini o'rganish shundan dalolat beradiki, ushbu mamlakat tarixi bir qator Yevropa mamlakatlari va AQSh singari yirik kapitalistik davlatlar tarixi jarayonining qonuniyatlariga asoslangan holda bordi. Bu mamlakat ham boshqalar kabi mustamlaka siyosatini olib borishga harakat qildi.

Ko'rilayotgan davr ichida mamlakatda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr boshlarida mamlakat agrar davlatdan yirik sanoat davlatiga aylana bordi. Iqtisodiy taraqqiyotga neft sohasining rivojlanishi ham qo'shildi. Temir yo'llarning tobora kengayib borishi esa sanoat sohasini yanada rivojlantirdi. Bundan tashqari elektrotexnika, avtomobil, ximiya va boshqa sanoat sohalari taraqqiy etdi va bu jarayon yanada kapital konsentratsiyasi va monopolizatsiyasini kuchaytirib bordi.

Qayd etilgan hodisalar siyosiy sohada ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ular bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy strukturaning o'zgarib borishi, ya'ni yirik sanoat va korporatsiyalar, ularning xo'jayinlari, yirik kapital egalari kabilarning siyosiy faolligining tobora oshib borishi hamda ular qo'llab-quvvatlayotgan partiyalarning

ham bu jarayonlarga mos ravishda faoliyatining o'zgarib borishiga olib keldi. Siyosiy kurashlar zahirida endi turli siyosiy guruhlarining manfaatlari ifoda etila boshlandi.

Siyosiy kurashlar mamlakatning turli iqtisodiy kuchlari manfaatlarining to'qnashgan nuqtalarida yuzaga keldi. Bu manfaatlarini aks ettiruvchi va himoya qiluvchi turli oqimlar: konservatorlar, progressistlar, islohotchilar, respublikachilar, demokratlar, yangi demokratlar, sotsialistlar kabi bir qator ijtimoiy oqimlar shakllandi. Bunday jarayonlar albatta, madaniyat va san'at sohasida ham aks etib bordi. Bu sohada ham turli oqimlar va yo'nalishlar shakllandi. Adabiyot sohasi, tasviriy san'at sohasi va me'morchilik sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi. XIX asrning oxirlari va XX asrning ikkinchi yarmida madaniyat va san'at sohasida o'ziga xos yo'nalishlar, metodlar va oqimlar paydo bo'ldiki, ularni o'rganish va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish muhimdir.

Bu davrda tasviriy san'at sohasida bir qator oqimlar shakllandi: naturalizm, lirizm, romantizm, sotsial realizm, lirik realizm, abstraksionizm va boshqalar ana shular jumlasidandir. Bu oqimlar AQSh madaniyatining keyingi taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda turli maktablar, musiqa o'quv yurtlari tashkil topdi. Ularning faoliyati musiqa yaratish bilangina cheklanib qolmadi. Bu maktablarning o'qituvchilari musiqiy ta'lim berish va estetika sohasida pedagogik faoliyat ham olib bordilar. Bu davr madaniyati dunyoga tanilgan buyuk san'atkorlar, bastakorlar va me'morlarni berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Каримов И..А. Юксак маънавият - енгилмас куч.-Т.:Маънавият, 2008.114 б.
- 2.Февр Л.Цивилизация: эволюция слова и группы идей // Бои за историю. М.:Наука. 1991. 242-247 б.
- 3.Очерки истории арабской культуры V-XV вв. Главная редакция восточной литературы.М.:Наука, 1982. С.340-341.
- 4.История США. Т.2.1877-1918. М.:Наука, 1995.
- 5.История политического движения в США в 5-ти томах.Т.2. М.: Наука, 2000.
- 6.Манхейм К. Диагноз нашего времени. М., 1994. –С.601-602.
- 7.Э. Хэмингуэй. “Кекса газетачи ёзади. М.,1983. Б.67.
- 8.Паррингтон В.Л.Основные течения американской мысли: В 3-х т. М., 1962-1963. Т.1.-Б.540.
- 9.Чаз Г. Американская музыка. Н.Й., 1955, С.348 .